

Jahonning yetakchi kompaniyalaridan hamkorlik qilish taklifi

Ispaniyaning sprinkler (yomg'irlatib) sug'orish tizimi bo'yicha yetakchi kompaniyalari hamkorlik qilish taklifi bilan chiqishdi. Cesar Gago (RKD kompaniya), Jose Manuel Fernandez (Vyrsa kompaniya), Alberto Hernandez (ITC kompaniya), Santiago Pesquera (RAESA kompaniya), Olatz Amorrortu (AGRAGEX assotsiatsiyasi), Yelizaveta Ramenskaya (Ispaniya elchixonasi)dan tarkib topgan delegatsiya institutga tashrif buyurdi. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori A.Salohiddinov tomonidan Ispaniya delegatsiyasini TIQXMMIga tashrifi bilan qutladi. Institutning ta'lim va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi xususida tajribalari va imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berildi.



AGRAGEXning mutaxassisi Olatz Amorrortu tashrif buyurgan Ispaniya kompaniyalari va ularning vakillarini tanishtirdi. RKD sug'orish texnikalarini ishlab chiqish korxonasining mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha direktor o'rinbosari Cesar Gago kompaniyaning sug'orishning avtomatlashgan tizimini dalalarda tashkil etish bo'yicha taqdimot namoyish etdi. So'ngra Vyrsa kompaniyasining direktor o'rinbosari Jose Manuel Fernandez sug'orish uskunalari, klapanlari va sug'orish tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha mahsulotlarini foydalanish imkoniyatlari haqida batafsil yoritib berdi. Santiago Pesquera esa RAESAning alyuminiy quvurlar va ulardan foydalanishning keng imkoniyatlari haqida batafsil yoritdi. Prorektor A.Salohiddinov o'zaro teng hamkorlik rishtalarini o'rnatish va institut hududida sug'orish texnologiyalarini qamrab olgan ilmiy laboratoriyani tashkil etish bo'yicha muzokaralar olib borishdi.



Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sherzod Raxmonov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov